



O‘SMIRLARDA SUBMADANIYAT SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19650459>

SURXONDARYO VILOYATI BANDIXON TUMANI 16-SONLI UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABINING PSIXOLOGI (magistr)

Pardayeva Maftuna Baxtiyor qizi

Annotatsiya: zamonaviy dunyo shiddat bilan rivojlanar ekan unda yaratilayotgan qulayliklardan o‘rinli foydalanishni bilmayotgan hamda ota-ona nazoratidan qolib mustaqillika intilayotgan ayrim yoshlarimiz orasida submadaniyat tarqalishi keng rivojlanib bormoqda. Uning sabablari va oqibatlarini, o‘smirlarga xos psixologik xususiyatlar va submadaniyat tushunchasi ushbu maqolada keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: submadaniyat, o‘smirlik, oila, jamiyat, tarbiya, ota-ona, bola, shaxs, sog‘lom muhit, ijtimoiy hayot.

Submadaniyat (lotincha: *sub* — „ost“ va madaniyat) jamiyatshunoslik, antropologiya va madaniyatshunoslik atamasi bo‘lib, jamiyat madaniyatining keskin farqlanuvchi bir qismini anglatadi. Submadaniyat ichida o‘ziga xos kiyinish, jargon, hatti-harakat va boshqa madaniy normalar bo‘lishi mumkin. Submadaniyatlar milliy, demografik, professional, geografik va boshqa asoslarda shakllanishi mumkin. Bundan tashqari yoshlar orasidagi submadaniyatlar alohida ajratiladi. ammamiz ham dyeyarli har kuni ijtimoiy istalmagan axloqning turli-tuman ko‘rinishlari – tajovuzkorlik, zararli odatlar, qonunga zid harakatlar bilan to‘qnashamiz... Shu kabi muammolar bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar ko‘p yillardan beri qator savollarga javob izlamoqdalar. Bunday

axloqning sababi nimada bo‘lishi mumkin.

O‘smir o‘z diqqatini to‘la ravishda o‘zi uchun axamiyatli bo‘lgan va yuqori natajalarga erishishi mumkin bo‘lgan faoliyatlarga qarata oladi. O‘smirni diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo‘lishi mumkin. Bolaning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o‘qituvchi tomonidan doimo qo‘llab-quvvatlanishi juda zarurdir. O‘smirlik davri – aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinfdan boshlanadi. “Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas” – ayni shu ta‘rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Bu davr qarama – qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba‘zi olimlar “krizislar”, “tanazzullar” davri ham deb ataydilar. O‘smirlik bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jismoniy jihatdan



o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakillanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smir ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar ro'y beradiki, u bu inqirozni bir tomondan o'zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan o'zi hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli yetmaydi.

O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar sezgilar va jinsiy hayotga talluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bular ta'sirida o'smirning xarakteri, atrofdagi kishilar bilan muomalasi, jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarga munosabati tez o'zgarib boradi. Ba'zan ijtimoiy masalalar to'g'risida noto'g'ri tassavvur va yanglish fikrlar hosil bo'lishi

tufayli u muayyan tartib qoidalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Bola kamolotining bu davrini ko'pincha "qiyin", "murakkab", "muhim" davr deyiladi. O'smirlik davri o'zining taqlidchanligi, muhim nazarning shakillanmagani, hissiyotga beriluvchanligi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Bu o'smirlarga xos xususiyatdir. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor ta'lab qilinadi.

Ushbu tadqiqotimizda biz "S H M I S H E K T E S T I" metodikasi hamda 15 ta savolnomadan iborat so'rovnomadan foydalantik. Tadqiqotimizda jami bo'lib 64 nafar sinaluvchi qatnashdi. Ushbu tadqiqotimizni Surxondaryo viloyati Bandixon tumanidagi 16-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida o'tkazdik.

1-jadval

SHMISHEK XARAKTER XUSUSIYATLARI testi bo'yicha birlamchi natijalar tahlili

	N	Minimal qiymat	Maksimal qiymat	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Dispersiya	Assimetriya	Ekses
Xayojonlanuvchi tip	64	1,00	12,00	5,80	2,47	6,14	,024	-,691
Pediant tip	64	1,00	11,00	5,26	2,50	6,28	,317	-,888
Demonstrativ tip	64	1,00	12,00	6,05	2,57	6,61	,100	-,753

Tadqiqot 64 nafar respondentni qamrab oldi. Biz tadqiqotning keyingi

bosqichida olingan natijalarni birlamchi tahlilini amalga oshiramiz.



Xayajonlanuvchi tip bo'yicha minimal qiymat 1 ballni tashkil qilsa, maksimal qiymat 12 ballga tengligi aniqlandi. Xayajonlanuvchi tip shkalasi bo'yicha o'rtacha qiymat 5,80 ballni tashkil qildi. Natijalar tahlilidagi standart og'ish 2,47 ballga tengligini kuzatdik. Demak bizning tahlilda 2,46 dan 9,14 balgacha meyor hisoblanadi. Pediant tip bo'yicha minimal qiymat 1 ballni tashkil qilsa, maksimal qiymat 11 ballga tengligi aniqlandi. Pediant tip shkalasi bo'yicha o'rtacha qiymat 5,26 ballni tashkil qildi. Natijalar tahlilidagi standart og'ish 2,50 ballga tengligini kuzatdik. Demak bizning tahlilda 1,92 dan 8,6 balgacha meyor hisoblanadi. Pediant tip shkalasi bo'yicha assimetriya ko'rsatkichi $-0,317$ kuchsiz ifodalangan chap tomonlama assimetriya.

Ekses ko'rsatkichi $-0,888$ ni tashkil qildi, bizning misolda kuchsiz ifodalangan manfiy ekses namoyon bo'ldi.

Demonstrativ tip bo'yicha minimal qiymat 1 ballni tashkil qilsa, maksimal qiymat 12 ballga tengligi aniqlandi. Demonstrativ tip shkalasi bo'yicha o'rtacha qiymat 6,05 ballni tashkil qildi. Natijalar tahlilidagi standart og'ish 2,57 ballga tengligini kuzatdik. Demak bizning tahlilda 2,71 dan 9,39 balgacha meyor hisoblanadi. Demonstartiv tip shkalasi bo'yicha assimetriya ko'rsatkichi $-0,100$ kuchsiz ifodalangan chap tomonlama assimetriya. Ekses ko'rsatkichi $-0,753$ ni tashkil qildi, bizning misolda kuchsiz ifodalangan manfiy ekses namoyon bo'ldi.

2-jadval

Sinaluvchilarning natijalarini K.Simirnov mezoni bo'yicha tahlili

Ko'rsatkichlar	Kolmogorov Smirnov mezoni	P
Xayajonlanuvchi tip	1,310	0,065*
Pediant tip	1,662	0,008**
Demonstrativ tip	1,091	0,185*

O'tkazilgan tadqiqot natijalarining normal taqsimlanishga moslik holati teksherildi. Xayajonlanuvchi tip bo'yicha ($Z=1,310$; $P>0,05$) natijalar normal taqsimlanish qonuniga mos krelidi, tadqiqotimizning keying bosqichida parametrik mezon orqali natijalarni tahlil qilamiz (Styudent, Dispersion tahlil, Pirson mezoni). Pediant tip shkalasi bo'yicha natijalar tahlil qilinganda

($Z=1,662$; $P<0,01$) ma'lumotlar normal taqsimlanish qonuniga mos kelmaganligi aniqlandi. Keyingi tahlilda natijalar noparametrik mezonlar orqali tahlil qilinadi (Vilkokson, Mann Uitni, Spirman, Krusskal Uollis). Demonstrativ tip shkalasi bo'yicha olingan ma'lumotlar ($Z=1,091$; $P>0,05$) normal taqsimlanish qonuniga mos keladi va keying bosqichda biz parametrik mezonlardan foydalanish orqali natijalarni tahlil qilamiz.



3.2.8-jadval

Olingan ma'lumotlarning guruh tafavvutlari (Styudent mezonida)

	Gruh	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t	p
Xayojlanuvchi tip	O'smirlar	64	5,8750	2,34375	3,42	0,001***
Demonstrativ tip	O'smirlar	64	5,8929	2,44710	3,47	0,001***

Tadqiqotning yuqoridagi shkalalari normal taqsimlanish qonuniga mos kelganligi sababli biz Styudent mezonida o'smirlar tahlil qildik. Natijalar tahliliga ko'ra ikkala shkalalarda ham ishonch darajasidagi tafavvutlar kuzatildi ($t=3,42$; $p < 0,001$), ($t=3,47$; $p < 0,001$). O'smirlarning yoshiga bog'liq bo'lgan qiziqishlar bunday natijalarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda o'smirlardagi bunday o'zgarishlarning asosiy sababi ommaviy madaniyatdir. V.M.Karimovning yozishicha, «Kichik va katta guruhlarda munozaralarni tashkil

etishning o'ziga yarasha qoidalari mavjud bo'lib, kichik, tor doiralardagi kompakt guruhlarda uyushtirilgan munozaralarning erkin mavzuli, yo'naltirilgan va aniq ssenariyli disput turlari mavjud bo'lib, bu tanlangan mavzuga va munozara guruhlarining muloqot tajribasiga bog'liqdir («disput» so'zining lug'aviy ma'nosi - «fikrlayapman», «tortishayapman»)). Ushbu qoidalarni inobatga olgan holda biz tanlab olingan o'quvchilar guruhida o'smirlarga xos namunaviy xulq-atvorni shakllantirishga yo'naltirilgan korporativ trening dasturini ishlab chiqdik

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.G'oziev. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. "O'qituvchi". 1990. 6. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida. "O'qituvchi", T., 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr 5-6-11 betlar.
3. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 1998, 21-bet.
4. Abdurauf Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2013 72-b
5. Л.С.Выготский «Педагогическая психология», М., 1990 г.



6. Ziyu.uz
7. Arxiv.uz